

ROSSIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYO XONLIKLARI BILAN OLIB BORGAN SAVDO STRATEGIYASI XUSUSIDA

Mirsaid Parpiyev,

UNIVERSITY OF BUSINESS SCIENCES (UBS) universiteti

Tarix mutaxassisligi II bosqich magistranti

Ma'lumki, Rossiya imperiyasi o'z manfaatlari yo'lida iqtisodiy muammolar va sanoatni rivojlantirish maqsadida O'rta Osiyodagi vaziyatlarni har tomonlama o'rganib, xonliklarga qarshi keng qamrovli harbiy-siyosiy harakatlarni olib borishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Shunday harakatlardan biri 1858 yilda Xiva va Buxoro xonligiga N. P. Ignatev boshchiligidagi missiya tashrif buyurdi. N. P. Ignatev boshchiligidagi harakatlar Xiva xonligida biron bir natijaga erishmagan bo'lsa-da, biroq Buxoroda ba'zi bir ijobiy natijalarni qo'lga kiritishga ulgurgan edi⁷².

Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so'ng, savdo-iqtisodiy va siyosiy masalalarni mustaqil hal qilish huquqiga ega bo'lgan Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman, birinchi navbatda ko'rgan tadbirlaridan biri – o'lka tashqi va ichki savdo munosabatlarini rivojlantirish masalalari bo'ldi. Ana shu masalalarni hal qilish borasida Kaufman tomonidan qo'llanilgan birinchi tadbir O'rta Osiyoda savdo uchun to'lanadigan soliq-zakotni bekor qilish edi. Rus savdo va sanoat doiralari hamda O'rta Osiyo savdogarlari manfaatlarini ko'zlab, K. P. Kaufman moliya ministrining 1869 yil 12 dekabrda bergan roziligi bilan O'rta Osiyodan Rossiyaga chiqariladigan mollardan zakot olishni taqiqlab qo'ydi⁷³. Ko'rilgan bu chora Turkiston savdosi tranzit savdo borasida alohida o'rin tutgani sababli, O'rta Osiyo xonliklari va qo'shni davlatlardan markaziy Rossiyaga Turkiston orqali mol olib chiqish uchun ham juda qulay sharoit yaratardi. Undan tashqari, bu davrda ichki va tashqi zakot masalalarida noaniqliklar ko'p bo'lgani uchun bu tadbir

⁷² Игнатьев Н. П. Миссии в Хиву и Бухару в 1858 г. – СПб., 1897. – С. 227–228.

⁷³ Bu haqda qarang: Махкамов А. А. Россиянинг Ўрта Осиёдаги савдо сиёсати (XIX аср иккинчи ярми) / Фарғона водийси тарихи муаммолари. Республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 235.

Turkiston o'lkasida mavjud bo'lgan savdo qonunlarini yo'qqa chiqarish bilan barobar edi.

Sirdaryo va yettisuv viloyatlarining boshqarish loyihasini qayta ko'rib chiqish uchun tuzilgan komissiya dokladida shunday deyilgan edi: «Faqat bir savdo karvonini Rossiyada va undan tashqarida savdo olib borishi mumkin bo'lgani uchun, karvon savdosini aniqlik bilan ichki va tashqi savdoga bo'lish amalda umuman mumkin emas»⁷⁴. O'lka ma'muriyatini savdo qilish huquqi uchun to'lanadigan soliq to'lash tadbirini qayta tashkil etishga majbur qilgan asosiy sabab, Rossiya va O'rta Osiyo savdo munosabatlarining rivojlantirishga yordam berish edi. Shu bilan bir vaqtda ko'rilayotgan yangiliklar savdo-sanoat doiralarining qiziqishlarini aks ettiruvchi rus matbuotidagi shikoyatlar va boshqa to'siqlarni yo'qotish uchun ko'rilgan tadbir edi.

Turkiston ma'muriyatining (K. P. Kaufman tashabbusi bilan) Rossiya – O'rta Osiyo savdosini rivojlantirish uchun ko'rgan tadbirlaridan biri – Toshkentda yarmarka ochilishi bo'ldi. Birinchi Toshkent yarmarkasi 1870 yil kuzida bo'lib o'tdi. Uning tashkilotchilari mahalliy savdogarlarni Rossiya bozorlariga ko'plab mollar jo'natish, rus va mahalliy kapital qiziqishlarini yanada yaqinlashtiriga, boshqacha qilib aytganda, mahalliy kapitalni rus sanoati uchun ishlatishga harakat qildilar. O'rta Osiyolik savdogarlarni ko'plab jalb qilish maqsadida K. P. Kaufman, moliya ministri-ning ruxsati bilan Buxoro va Xiva xonliklaridan, Afg'oniston va boshqa joylardan kelayotgan savdo karvonlaridan zakot olishni to'xtatish haqida buyruq berdi. Qo'qon xonligi, Hindiston va Xitoy savdogarlari ham o'z mollarini zakot to'lamasdan sotish huquqiga ega bo'ldilar. Toshkent yarmarkasiga faqatgina Turkiya va yevropa mollarini olib kelish ma'n etilgan edi.

Orenburg va G'arbiy Sibir oralig'idagi bojxonalarni yo'q qilinishi hamda Turkiston bozorlarida sotilayotgan O'rta Osiyo mollarini savdo soliqlaridan ozod etilishi Markaziy Rossiyaga jo'natilayotgan O'rta Osiyo mollarini miqdorini ko'paytirdi. Shu bilan birga bu tadbir birinchi paytlarda davlat xazinasini daromadiga ham unchalik katta zarar yetkazmadi.

⁷⁴ Махкамов А. А. Россиянинг Ўрта Осиёдаги савдо сиёсати... – Б. 236.

Toshkent yarmarkasi keltirilgan mollarning eng ko'p qismini Qo'qon va Buxoro xonliklaridan keltirilgan mollar tashkil etdi. Agarda O'rta Osiyo xonliklaridan 1870 yilda 964840 so'mlik mol keltirilgan bo'lsa, 1871 yilda 1246480 so'mlik, 1872 yilda esa 1159280 so'mlik mol keltirilgan. Xonliklardan yarmarkaga keltirilgan mollarning deyarli hammasi Rossiyaga jo'natilgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, Rossiya – O'rta Osiyo savdo munosabatlari rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni salbiy tomonlari bo'lsa ham, ular savdo muomalasini kengayishiga katta hissa qo'shibgina qolmasdan, O'rta Osiyo kapitalini Rus-O'rta Osiyo savdosiga kiritishga ko'maklashdilar. Agarda ko'rilgan tadbirlarning ijobiy tomonlariga aniqroq to'xtaladigan bo'lsak, unda quyidagi o'zgarishlarni ko'ramiz: 1. Tovar almashishning nisbatan tez o'sishi. 2. Turkiston o'lkasi mustaqil O'rta Osiyo xonliklari va qo'shni davlat savdogarlarining kapitallarining jahon kapitalistik bozori aylanmasiga asta-sekinlik bilan tortilib borishi. O'rta Osiyo savdogarlari kapitalining o'sishi va mustahkamlanishi⁷⁵.

Lekin, ushbu muvaffaqiyat rus savdo siyosati va savdo kapitalining buzg'unchi faoliyatini oqlamasligi ayni haqiqat. Erkin soliqsiz savdo faqatgina ko'tara savdo olib boradigan savdogarlarni emas, balki mayda, asosan olib sotarlik bilan shug'ullanuvchi savdogarlarni ham o'ziga jalb etdi. Katta bo'lmagan kapital egalari xom ashyoni keng miqdorda, past baholarda sotib olib, savdo markazlarida ustama narx bilan sota boshladilar.

Ma'lumki, Rossiya – O'rta Osiyo o'rtasida olib borilgan savdo aloqalarida Buxoro amirligi yetakchi o'rinni egallagan edi. Masalan, 1828 yilda O'rta Osiyo xonliklaridan Orenburg savdo markaziga 3578 ta tuyadan iborat savdo karvoni tashrif buyurgan. Shundan jami mollarning narxi 4456241 rublga baholangan. Shundan 2480 tuya yuk Buxoroga 1003 ta tuya yuk Xiva, 95 tuya yuk Toshkent hisobiga to'g'ri kelgan. Buxoro – Rossiya savdo aloqalarida Orenburg savdo markazining o'rni

⁷⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон Совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 148.

muhim hisoblangan. 1829 yilda 213 ta, 1833 yili 152 ta, 1835 yili 341 ta, 1837 yilda 388 ta buxorolik savdogarlar Orenburgga tashrif buyurgan⁷⁶.

XIX asrning 40–50- yillariga kelib ham Buxoro–Rossiya oʻrtasida savdo mollarini ayirboshlash choy va xom ipak va shiyidan tashqari deyarli oʻzgarmadi. Bu davrda Buxorodan Rossiyaga chiqarilgan paxtadan toʻqilgan bir botmon oliy navli ip kalava 120 rubl, oʻrta navi 100 rubl, uchinchi navi 80 rubl, yaxshi rangli 100 boʻlak chit matosi 120 rubl, bozor chiti 100 boʻlagi (kusogi) 100 rubl, qoʻy terisi (merlushki) xomashyosi 10 tasi 12 rubl, Oʻrta Osiyo savdosi uchun yaratilgan qulay sharoit Oʻrta Osiyo xonliklari bosib oʻtgan tarixiy jarayonlarning hamma bosqichini oʻtishi bilan birga, qonuniy aktlar bilan tezlatildi hamda rus sanoat korxonalaridagi Oʻrta Osiyo xom-ashyosiga boʻlgan talabni oshishi bilan tayyorlanib bordi. Haqiqatan olib qarasak, agar rus qoʻshinlarining Oʻrta Osiyoga yurishidan avval bir pud (16 kg.) paxtaning narxi 2 soʻmdan 2 soʻm 50 tiyingacha boʻlsa, 1870 yilga kelib uning narxi 5-6 soʻmga koʻtarilganini koʻrish mumkin.

Ushbu davrdagi rus toʻqimachilik mollarini narxini tushib ketishiga sabab, ularni Oʻrta Osiyo bozorlariga koʻplab keltirila boshlanishi bilan birga ingliz toʻqimachilik mollarining ham katta guruhlarda Oʻrta Osiyoga olib kelib sotilishi edi. Shuning uchun rus savdogarlari va sanoatchilari hukumatdan Oʻrta Osiyodagi rus savdosini ingliz mollari raqobatidan qutqarishni talab qila boshlashdi. 1868 yilda chor hukumati savdogarlar va sanoatchilar talabini hisobga olib, yevropa mollarini Turkiston oʻlkasiga olib kirishni maʼn etdi. Bu tadbir Turkiston oʻlkasi bozorlariga ingliz mollarini olib kirilishini toʻxtata olmadi. Lekin hukumat yevropa mollarini Oʻrta Osiyo xonliklariga kiritishni maʼn eta olmas edi. Bu xonliklar Rossiyaga qaramlikni tan olishsa ham, tashqi savdo masalasida mustaqillikni saqlab qolishgan edi. Turkiston oʻlkasidagi boj olish tartibi chet el mollarini kotrabanda yoʻli bilan olib kirish uchun qulay sharoit yaratib bergan edi. Bunday holat rus savdogarlarida jiddiy xavotir

⁷⁶ Bu haqda qarang: Очилдиев Ф. Б. XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро–Россия савдо алоқалари. – Тошкент, 2022. – Б. 436.

uyg'otdi va ular o'lka ma'muriyatidan yevropa mollari raqobatidan xalos etishni tobora qattiq turib talab qila boshladilar.

Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyati yevropa tovarlarining faqatgina Turkiston general-gubernatorligi maydoniga emas, balki Buxoro va Xiva xonliklari maydoniga ham kiritishni to'xtatish choralari ko'ra boshladi, chunki bu xonliklarga kelib tushayotgan yevropa mollari Turkiston general-gubernatorligi maydoniga ham kirib, Rossiya manufaktura va boshqa mahsulotlariga jiddiy raqobat yaratardi. Turkiston general-gubernatorligi shu maqsadlarda, chor hokimiyati bilan hamkorlikda maxsus komissiya tuzadi. Bu komissiyaning asosiy maqsadi o'lkadagi boj olish nazorati ishini qayta ko'rib chiqish edi.

Ushbu komissiya o'z ishida asosiy diqqatni ichki va tashqi zakot olish masalasiga qaratdi. Komissiyaning ko'pchilik a'zolari rus mollarini O'rta Osiyo bozorlarida sotish uchun qulay sharoitlar yaratish va aksincha O'rta Osiyo xom ashyosini rus sanoati uchun olib chiqishga harakat qildilar. Komissiya a'zolari zakot to'lash tadbirini davlat uchun ham, savdogarlar uchun ham foydasiz deb topdilar. Masalan, zakot miqdorini aniqlash uchun kapital miqdorini bilish zarur edi. Binobarin bu narsa O'rta Osiyodagi savdogarlar o'z kapitali miqdorini yashirishlari tufayli mumkin bo'lmagan hol edi. Bu tadbir savdogarlarga har xil ta'sir etishi mumkin edi. Shu bilan birga hunarmandchilik mollaridan olinadigan foyda har xil bo'lishiga qaramay, zakot kapitaldan bor yo'g'i bir marotaba olinardi.

1874 yilgacha komissiya ishlab chiqqan takliflar hayotda qo'llanilmadi, chunki bu davrda chor hukumati Xiva xonligining Rossiyaga tobeligini qabul qilishini kutayotgan edi. Faqat 1873 yilda Xiva va Buxoro xonliklari bilan tuzilgan shartnomadan so'ng, 1874 yil mayida Turkiston komissiyasining takliflari Ministrlar Soveti tomonidan qo'llanib, imperator tomonidan tasdiqlandi. 1875 yil 1 yanvaridagi Davlat qo'mitasi qaroriga muvofiq, Turkistonda doimiy savdo-sotiq ishlarini olib boruvchi savdogarlardan soliq undiriladigan bo'ldi. Lekin bu qarorni qabul qilinishi ichki zakotni butunlay yo'q qila olmadi. Zakot yig'imi Xiva xonligidan ajratib

olingan va Amudaryo bo'limiga birlashib, Sirdaryo viloyati tarkibiga kirgan yerlarda ham saqlanib qolindi⁷⁷.

1874 yilda qabul qilingan Turkiston o'lkasida savdo qilish haqidagi qonun ichki savdoni tartiblashtirgan bo'lsa ham, tashqi savdo nazoratini bo'shashtirib yubordi. Shu bilan bir vaqtda, zakot olish boshqarmalarini yo'q qilinishi 1870 yilda Moliya ministri tomonidan Turkiston general-gubernatorligida saylangan alohida topshiriq yuklatilgan amaldor mansabini qisqartirishga olib keldi. Tashqi savdoni nazoratsiz qoldirib Turkiston o'lka ma'muriyati juda katta xatoga yo'l qo'ydi. Sirdaryo viloyati va Zarafshon okrugidagi zakot olish postlarining yo'q qilinishi yevropa mollaridan boj olish va ularni kirib kelishini qaysi yo'sinda to'xtatish masalalarini ochiq qoldirdi. Bu narsa o'z navbatida Turkiston o'lkasining juda katta qismidan yevropa mollarining qarshiliksiz kirib kelishi uchun sharoit yaratib berdi. Shuni qayd qilish kerakki, olib kirilayotgan mollarni nazorat qilib turish O'rta Osiyodagi rus savdosi uchun muhim ahamiyat o'ynagani bilan, XIX asr 80- yillarining boshigacha hokimiyat chet el mollarini nazorat qilib turish uchun hech qanday tadbirlar ishlab chiqmadi. Bu narsa 1873-1876 yillardagi Qo'qon xonligidagi siyosiy ahvolning mushkulligidan kelib chiqadi.

Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona viloyati tashkil topganidan so'ng tashqi va ichki savdo masalalari Farg'ona viloyatining boshqarishning tashkil etish bilan bog'liq holda ko'rila boshlandi. Yangi viloyatdagi keskin vaziyatni inobatga olib, Turkiston o'lka ma'muriyati 1876 yil noyabr oyida, u yerga faqatgina chet el mollarini kiritishnigina emas, balki Sinjonga tranzit orqali tovar o'tkazishni ham to'xtatish yuzasidan buyruq berdi. O'lka ma'muriyatining bu xatti-harakatini faqatgina siyosiy sharoitdan kelib chiqqan chora debgina qolmasdan, balki yangi viloyatni boshqa viloyatlar qatoriga tenglashtirish maqsadlarida qilingan harakat deyish kerak. Lekin chet el mollarini kiritishni to'xtatish haqidagi buyruq ularni haqiqatan to'xtaganligini anglatmas edi. Nazoratning yo'qligi sababli chet el mollari Farg'ona viloyatiga hech qanday qarshiliksiz kirib kela boshladi.

⁷⁷ Михалева Г. А. Узбекистан в XVIII – первой половина XIX века ремесло, торговля и пошлины. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 81.

Xulosa shuki, rus hukumati uchun Turkiston o'lkasida va qo'shni xonliklarda savdoni rivojlantirish, mamlakatdagi rivojlanayotgan kapitalizm munosabatlari hamda siyosiy ahvolni tekislash bilan bog'liq edi. Lekin, mustamlaka siyosati Rossiya savdo-sanoat doiralari qiziqishlariga ham javob berardi, shuning uchun ular bunday siyosatni batamom ma'qullardi. Mustamlaka siyosati, albatta, rus burjuaziyasi pozitsiyalarini chor hukumati irodasi asoslanmagan holda mustahkamlanishiga olib keldi.

